

RAYHON O'SIMLIGIGA UMUMIY TAVSIF

Ernazarova Mavluda Shernazarovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Farmakognosiya va farmatsevtik texnologiyalar kafedrasida asistenti

Baxromova Barno Zokirovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Farmakognosiya va farmatsevtik texnologiyalar kafedrasida asistenti

Dusmurotov Bahodir Shuxrat o'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Farmatsiya fakulteti 2-kurs talabasi.

e-mail: dusmurotovbahodir@gmail.com

Tel: +998906034608

Annotatsiya: Rayhon o'simligiga haqida umumiy ma'lumot berish va inson organizmiga ta'sir etuvchi ijobiy tomonlarini ochib berish.

Kalit so'zlar: Osimum Basilicum, Lamiaceae, Xunan, Osimum Basilicum 'Thailand', Krishna Tulsi, Ram Tulsi, Vana Tulsi, Hindiston.

Sistematikasi. Rayhon(Osimum Basilicum) Yalpizdoshlar (Lamiaceae) oilasiga mansub bo'lib, manzarali, dorivor va ziravor ekin sifatida ko'plab davlatlarda yetishtiriladi. Rayhonni 50dan 150gacha turlari borligi taxmin qilinadi va ularni ko'pchiligi pazandachilikda va landshaftbop o'simlik sifatida ishlatildi.

Kelib chiqishi. Rayhon o'simligi qadim-qadimdan Shirin rayhon yoki Thailand rayhon deb atab kelingan. Uning kelib chiqishi ayrim manbalarda Hindiston sifatida ko'rsatiladi ammo rayhonni vatani undan ham olisroq Sharq tarixiga borib taqalishini olimlar isbotlashdi. Ya'ni rayhon haqida eramizni 807-yilliklarida Xitoyning Xunan mintaqasida Shirin rayhon yetishtirilganligi haqida manbalar bor. Rayhon yillar davomida Sharqdan G'arbga ko'chib o'tganligi taxmin qilinadi, chunki rayhonni faqat issiq iqlim va yopiq sharoitdagina o'stirish mumkinligi isbot sifatida keltirildi.

Tarixi. Rayhon qadimdan diniy manbalarda ham qo'llanilib kelingan. Portugaliyada ayrim diniy an'analarga ko'ra rayhon sevgan insoni uchun sovg'ani bir qismi bo'lib ishlatilgan. Qadimgi Yunonistonda esa nafrat ramzi bo'lib hisoblangan.

Yer yuzida tarqalishi. Rayhon subtropik va tropik mintaqalarda o'sishga moslashgan bo'lib xususan Markaziy Afrikadan--- Janubi Sharqiy Osiyogacha bo'lgan tropik mintaqalarda tarqalgan. Rayhon mo'tadil iqlim sharoitida bir yillik o't o'simlik sifatida o'sishi mumkin, ammo tropik yoki O'rta Yer dengizi iqlimi bo'lgan issiq bog'dorchilik zonalarida qisqa muddatli ko'p yillik yoki ikki yillik o'simlik sifatida o'sadi.

Turlari. Rayhonni turlari 50ta(ba’zi adabiyotlarda 150 gacha). Ularning ko’pchiligi asosan pazandachilikda ziravor ekin, landshaft yaratishda manzarali o’simlik sifatida ishlatiladi. Ularning ayrimlarini hududlarda muqaddas deb hisoblashadilar.

Shirin Rayhon(Osimum Basilicum), Genovese Rayhoni(Osimum Basilicum ‘Genovese’), Thai Sweet Basil, Lemon Basil, Green Rufles, African blue Basil, Cardinal Basil, Lettuce Basil, Lime Basil, Holy Basil . Bular eng mashhur Rayhon turlari va navlardir.

Aytib o’tganidek ayrim davlatlarda Rayhonni ba’zi turlarini muqaddas sanashadi. Misol uchun Hindistonda Krishna Tulsi(Ocimum Tenuiflorum) va Ram Tulsi(Ocimum Sanctum), Afrika va Hindistonda Vana Tulsi(Ocimum Gratissum).

Krishna Tulsi(Ocimum Tenuifloru) – quyuc binafsha rangli yaproqlarga va achchiq qalampirli ta’mgaga ega.

Ram Tulsi(Ocimum Sanctum)- yorqin yashil rangli yaproqlarga va achchiq ta’mgaga ega.

Vana Tulsi(Ocimum Gratissum)- Afrika, Hindiston, Osiyoda yovvoyi holatda o’sadi.

Tarkibi. Rayhonni quritilgan barglari yangi barglariga qaraganda o’zida faol moddalarni yaxshi saqlaydi.

	Yangi kesilgan barglar	Maydalab quritilgan barglar
Kaloriya	0,6	5
A vitamin	RDIning 3%	RDIning 4%
K vitamin	RDIning 13%	RDIning 43%
Ca	RDIning 0,5%	RDIning 4%
Fe	RDIning 0,5%	RDIning 5%
Mn	RDIning 1,5%	RDIning 3%

Ishlatilishi. Rayhon ko’pchilik davlatlarda iste’mol qilinadi. Quritilgan rayhon odatda Italyan, Vetnam, Tailand hamda ko’pchilik Osiyo taomlariga xo’shbo’ylik baxsh etishi uchun qo’shib kelinadi. Rayhon tabiiy antibiotikdir- isitma tushirish va bakteriyalarga qarshi kurashuvchi vosita sifatida qadim-qadimdan ishlatiladi. Shuningdek shamollashni davolashda; mushaklar og’rig’ini to’xtatishga; yallig’lanishni oldini olishda; balg’amni bronxlardan va o’pkalardan haydab chiqarishda; yo’talni davolashda; burun oqishini to’xtatishda ishlatilib kelingan.

Rayhonli choy. Rayhondan tabobatda turli xil usullarda choy tayyorlab foydalanishadi. Ularni bir qancha usullarni sizlarga taqdim qilaman.

1. Qaynayotgan suvga 20sh qoshiq yangi to'g'ralgan rayhon qo'shib, taxminan 5daqqa tindiriladi. So'ng choyni xom asal bilan birga qabul qilish ovqat hazm qilish muammolarini yo'qotishda samarali foyda beradi. Yo'taln ham to'xtatadi.

2. Tomoq og'riganda yuqoridagi tartibda choyni tayyorlaymiz va asal solmasdan choyni sovutib, tomoq chayishda foudalanamiz.

3. Bosh og'rig'ini to'xtatishda va asablarni tinchlantirishda foydalanish uchun qaynoq suvga 5tacha rayhon bargini solamiz va bir necha daqiqa qaynatishda davom ettirib, sovutib sekin-sekin ichamiz. Bu bosh o'g'rig'ini yaxshi to'xtatadi va mushaklarni bo'shashtirib ularni charchog'ini unuttiradi.

4. 'Migren' kasalligi bilan og'rgan bemorlar rayhon barglarini chaynashi ularni ahvolini yengillashtiradi.

5. Yangi Rayhonni maydalab ezib ari, ilon yokida hasharotlar chaqqan joylarga qo'yish qichishishni to'xtatish va zaharlarni chiqarib tashlashda yaxshi foyda beradi.

6. Rayhonning hidi kayfiyatni ko'taradi ya'ni Aromaterapiyada ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 'Basil'. Muallif- Courtney Johnson.
2. 'Growing & Using Basil'. Muallif- Ellen Ecker Ogden.
3. Нажмитдинов, Х. Б., Олимов, С. М., & Бахромова, Б. З. (2022). ПОЛЕЗНЫЕ СВОЙСТВА ФРУКТА–ПЕРСИК. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 327-332.
4. Olimov, S. M., & Vaxromova, B. Z. (2022). ZANJABIL HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI. *Journal of new century innovations*, 14(1), 156-160.
5. Vaxromova, B. Z., & Ernazarova, M. S. (2022). Dorivor lavanda o'simligi haqida umumiy ma'lumot va uning tibbiyotda qo'llanilishi. *Science and Education*, 3(11), 88-95.
6. Эрнazarova, М. Ш., & Бахромова, Б. З. (2022). Исследования свойств лекарственных растений содержащих алкалоид. *Science and Education*, 3(11), 106-116.
7. Norqulova, Z., Eshonqulova, K., Ernazarova, M., & XUSUSIYATLARI, S. P. S. *EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH*. V-1, I-2, ISSN, 2181-2020. <https://cyberleninka.ru/article/n/anjir-o-simligi>
8. Shamsiyeva, N. O., Sh, E. M., & Eshonqulova, K. H. EFFECTS ON THE BODY. STUDY OF GETTING, QUALITY REACTIONS, *EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH*, 1, 2181-2020.
9. Sh, E. M., Abrayeva, M. A., & Toshev, B. (2022). Treatment of rheumatoid arthritis with herbal medicines. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 207-209. [M.U. ANJIR O'SIMLIGI MEVASI](https://www.scientificjournal.com/ANJIR-O-SIMLIGI-MEVASI)
10. Sh, E. M. (2022). Useful properties of Lemon. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 1593-597. <https://cyberleninka.ru/article/n/garshi-shifobaxshlik-u-anjir-o-simligi>